

## DAVLAT XIZMATHILARI TIBBIY KO'RIK DAN O'TKAZILDI



### DAVLAT XIZMATHILARI TIBBIY KO'RIK DAN O'TKAZILDI

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi va "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonunlariga asosan tashkilotlarda xodimlarni dastlabki tarzda va keyinchalik (ish davomida) vaqti-vaqti bilan tibbiy ko'rikdan o'tkazish belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi "Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4891-son qarorida kasalliklar va ularni keltirib chiqaruvchi xavf omillarini erta bosqichlarda aniqlash bo'yicha maqsadli tibbiy ko'riklar va skrining tekshiruvlarini o'tkazish belgilab berilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bugun So'x tumani hokimligining barcha xodimlari hamda hokimlik binosida joylashgan tashkilotlarning barcha xodimlari birlamchi tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Mazkur tibbiy ko'rikning jarayonida tor mutaxassis shifokorlar tomonidan barcha davlat fuqarolik xizmatchilari sog'ligining barqarorligi ko'zdan kechirilib, tibbiy tahlillar va yuzma-yuz muloqotlar asosida ularga zarur tibbiy maslahat va tavsiyalar berildi.

Ushbu chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad, avvalo, inson qadriini ulug'lash, fuqarolarning jamiyatimizda o'z o'rni borligi va ularning haq-huquqlari, manfiati, salomatliklarini himoya qilishdan iborat. Zotan, sog'liq bebaho ne'mat degan ibora bejizga aytilmagan.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

2022-02-03 18:03:51